Karimova Nilufar Raimjonovna	
Nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ijtimoiy ish olib borishda muammo va yechimlar.....	488
Komilova Mohiniso Jobir qizi	
Kimyo o'qituvchisi kasbiy kompetentligini aniqlashning ustuvor pedagogik vazifalari	491
Mamajonov Shuhratjon Asqarovich, Odilxo'jazoda Nigoraxon Baxtiyorxo'ja qizi	
Ma'nnaviy taraqqiyot sharq allomalar merosida	495
Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna	
Abduqodir Shakuriyning yangi usul makteblari va o'qitish metodikasi	499
Muxtorqulova Rushona Zohidjon qizi, Salomova Ra'no Vassiyevna	
Raqamli ta'lif resurslaridan foydalanishning o'quvchilarning kognitiv rivojlanishiga ta'siri.....	505
Lapasova Zebiniso Xidirovna	
Fransuz tili mashg'ulotlarida madaniyatlararo muloqotga o'rgatishning kommunikativ texnologiyalari	509
Muzaffarova Nodira Mardonovna	
O'quvchilarni ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini shakllantirish omillari	514
Norbo'tayev Farhod Maxsidin o'g'li	
O'qituvchining kasbiy kompetentligi orqali o'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish.....	518
Rajabova Xurshida Hakimovna	
Harbiy xizmatchilarning oilasini harbiy muhitga moslashuvining ijtimoiy-psixologik omillari.....	521
Rejmetova Irada Ikramshikovna	
Refleksiv ko'nikmalarini shakllantirish metodik muammo sifatida	526
Raxmonova Iroda Samijonovna	
Umumiy o'rta ta'lif makteblari direktorlarining boshqaruva faoliyatida ijtimoiy muhitni	
rivojlantirishning amaldagi holati (menejerlik o'quv kurslari misolida)	530
Saidqulov Sodiqjon Botirovich	
Umumta'lif muktab o'quvchilarining ijtimoiy-siyosiy kompetensiyasini shakllantirish:	
nazariy yondashuv va ilmiy asoslar	533
Samatova Iroda Azamjon qizi	
Beyond Accountability: A Growth-Oriented Teacher Appraisal System for Professional Development	537
Sardorbek Rislikboyev	
Milliy qadriyatlar – millat ko'zgusi	542
Sulaymonova Tanzila Zoir qizi	
Tarbiya jarayoni mazmuni va mohiyati.....	545
Sultonov Ismoiljon Qodirjon o'g'li	
Nutqni rivojlantirishda interfaol pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurati va shart-sharoitlari.....	548
Tursunova Kamola Ulug'bek qizi	
Maktabgacha ta'lif tashkilotining milliy imidjini rivojlantirish va boshqarish texnologiyalari	552
Valiyeva Hamida	
Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bolalarni muktab ta'limga kompleks tayyorlash mazmuni.....	556
Xolboyeva Gulnora Ulashovna	
10-12 yoshli stol tennischilarni jismoniy tayyorgarligini yordamchi	
mashqlar majmuasini qo'llash orqali rivojlantirish.....	559
Yaqubova Zulayxo Alisherovna	
Gumanitar fanlarda milliy folkloridan foydalanishning ahamiyati.....	564
Abduxakimova Maxfuza Abduraxmonova	
Классификация сказок и их характерные черты	568
Musurmanova Aziza Kamilovna	

Необходимость развития коммуникативных компетенций у студентов медицинского ВУЗА	572
Шукрова Нодира Тиллаевна, Фуркатова Сабрина Фармоновна	
Oila va mакtab hamkorligi asosida o'smir yoshidagi o'quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish masalalari	576
Evatov Saminjon Sobirovich	
Sport mashg'ulotlarida motivatsiyani shakllantirish: pedagogik strategiyalar va vositalar.....	579
Rajapov G'olibbek Oripovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda o'qitishning tashkiliy-pedagogik shartlari	583
Rahmonova Zulayho Abdumalikovna, Buzukov T. O.	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda konsentratsiya qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik aspektlari.....	586
Israilova Xusnida Adilovna	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	590
Burxanov Bahodir Baxtiyorxodjaevich	



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KONSENTRATSIYA QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Israilova Xusnida Adilovna

Qo'qon universiteti Andijon filiali pedagogika,
psixologiya va filologiya kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda konsentratsiya qobiliyatini rivojlantirishning dolzarbliji, konsentratsiyani rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar, shuningdek, bu borada tarbiyachi mahorati va bolaning o'rganish to'siqlari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: konsentratsiya, diqqat, qobiliyat, xotira, M. Montessori pedagogikasi, harakatli o'yin, jismoniy faoliyat, metod, bolaning o'rganish to'siqlari.

Abstract: This article discusses the relevance of developing concentration skills in preschool children, the factors influencing concentration, as well as the role of the educator's professional skills and the child's learning obstacles.

Key words: concentration, attention, ability, memory, M. Montessori pedagogy, active games, physical activity, method, child's learning difficulties.

Аннотация: В данной статье рассматривается актуальность развития способности к концентрации у детей дошкольного возраста, факторы, влияющие на развитие концентрации, а также роль педагогического мастерства воспитателя и особенности учебных затруднений ребенка.

Ключевые слова: концентрация, внимание, способность, память, педагогика М. Монтессори, подвижные игры, физическая активность, метод, учебные затруднения ребенка.

KIRISH

Konsentratsiya shunday muhim psixik jarayonki, u insonning barcha faoliyatlarida ishtirok etadi. Eng sodda faoliyatda ham (masalan, poyafzal bog'ichini boylashdan tortib), eng murakkab faoliyatlaracha (o'qish, yozish kabi) konsentratsiyasiz ishni bajarish mutlaqo mumkin emas. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ixtiyoriy diqqati ularning iroda kuchi yordamida yuzaga keladi va ko'p hollarda bolani toliqtiradi. Noixtiyoriy diqqat esa, aksincha, boladan ortiqcha kuch talab etmaydi, chunki bola band bo'layotgan faoliyat kattalarning majburiyati bilan emas, balki bolaning o'z tashabbusi asosida mustaqil amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan maktabgacha yoshdagi bolalarning ixtiyoriy, noixtiyoriy va ikkilamchi noixtiyoriy diqqatining ijobjiy va salbiy jihatlarini o'rganish pedagogik zarurat sifatida qaraladi. Maktabgacha ta'lif tashkilotida "tarbiyachi-tarbiyaluvchi" munosabatlar tizimi doirasida, maktabgacha yoshdagi bolaning diqqati turlarini – ixtiyoriy, noixtiyoriy va ikkilamchi noixtiyoriy – tahlil qilish mezonlarini aniqlashtirish uchun ilmiy tadqiqotlar tahlili zarur bo'ldi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ixtiyoriy, noixtiyoriy va ikkilamchi noixtiyoriy konsentratsiya turlarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, bolalarda konsentratsiyaning barcha turlari o'ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagogik nuqtayi nazardan konsentratsiyaning har bir turiga ma'lum bir o'qitish metodlari mos keladi. Har bir konsentratsiya turining asosiy afzalligi – tarbiyachi va bolaning subyekt-subyekt sifatida o'zaro munosabatga kirisha olishidadir, kamchiligi esa ularning subyekt-obyekt sifatida munosabatga kirishishidadir. Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, konsentratsiyaning bu sifati maktabgacha ta'lif tashkilotlarida ta'lif jarayoni uchun yaratilgan pedagogik shart-sharoitlar darajasiga bevosita bog'liqdir.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mashhur pedagog olima M. Montessori bolaning diqqat-e'tiborini jamlash uchun quyidagilarni ta'kidlab o'tadi: olada mashg'ulotga qiziqish uyg'otish; bola e'tiborini ma'lumotni qabul qilishga tayyorlash; bolaga erkinlik berish (o'quv jihozlarini tanlash erkinligi, mashg'ulot davomiyligi erkinligi).

M. Montessori bu shartlarni bolaning ichki ehtiyojlarini qondiradigan, uning faol ishtirokini bir mashg'ulot, o'yin, mashqda ta'minlashni, sabrini rivojlantiradigan qo'shimcha "rag'batlantiruvchi material" bilan to'ldirishni taklif etadi. U o'z ilmiy asarlarida bolaning diqqat-e'tiborini jamlashga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillarni ham keltirib o'tadi. Bular quyidagilar: mashg'ulotlarning tez-tez almashinushi, bola biror faoliyat bilan mashg'ul bo'lganida tez-tez tanaffus qilinishi. M. Montessori "mashg'ulotning bola xohishiga zid ravishda kutilmaganda tugatilishi uning konsentratsiyasining yo'qolishiga olib keladi. Buning natijasida bolada mashg'ulotga bo'lgan qiziqish so'nadi", degan xulosaga kelgan.

Maktabgacha ta'lif didaktikasi – maktabgacha yoshdagagi bolalar ta'lifi va o'qitish nazariyasi hisoblanib, uning maqsadini belgilaydi. U maktabgacha yoshdagagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni maktabdagi o'qishga tayyorlashni ta'minlovchi ta'lifning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini ishlab chiqadi. Maktabgacha ta'lif didaktikasi bolalarda konsentratsiya qobiliyatini rivojlantiruvchi topshiriqlarni shakllantirishni ham maqsad qiladi.

L. S. Vygotskiy bolalar xotirasining yuqori shakllarini tizimli o'rgangan bo'lib, u "xotiraning yuqori shakllari shaxs kognitiv faoliyatining murakkab ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi va kelib chiqishi bo'yicha ijtimoiy shartidir", deb ta'kidlagan. Xotiraning fikrlash jarayonlari bilan bog'liq murakkab shakllari rus tadqiqotchisi P. I. Zinchenko tomonidan o'rganilgan. U noixtiyoriy eslab qolish va maqsadli, ixtiyoriy yodlab qolish jarayonlarini o'rgangan. P. I. Zinchenko murakkab ma'lumotlarni eslab qolishning asosiy usullarini ta'kidlab o'tgan va yodda saqlab qolishning belgilangan vazifaga bog'liqligini aniqlagan. Ma'lum davrgacha xotira psixologiyaning eng ko'p o'rganilgan sohasi deb qaralgan edi. Biroq, xotira bo'yicha so'nggi tadqiqotlar hozirgi kunda uni psixologiya fanining asosiy muammosiga aylantirdi. Xotira rivojlanishi muammosi hali to'liq o'rganilmagan bo'lib, ilmiy muammo sifatida maktabgacha yoshdagagi bolalarda xotira rivojlanishi ham bundan mustasno emas.

Asrlar davomida xotira qonuniyatlarini va mexanizmlari bo'yicha ko'plab nazariyalar (psixologik, kimyoviy, fiziologik va boshqalar) yaratildi. Bu nazariyalar psixologiya fanining o'ziga xos sohalarida paydo bo'lgan va muammolar mos uslubiy tamoyillar nuqtai nazaridan hal qilingan. Taniqli fan arbollarining yuqorida sanab o'tilgan asarlarida xotira psixologiya fanining eng ko'p o'rganilgan masalasi ekanligi ko'rsatildi. Hozirgi kunda dunyo miqyosida xotira jarayonlari, mexanizmlari va qonuniyatlarini o'rganishga juda ko'p yondashuvlar va nazariyalar mavjud bo'lib, ular turli darajalarda: fiziologik, psixologik, neyron va bioximik darajalarda o'rganilmoqda. Xotira bu murakkab jarayon bo'lib, u juda ko'plab mexanizmlar faoliyatini o'z ichiga oladi. Ma'lumki, maktabgacha yoshdagagi bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish katta ahamiyatga ega. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bolalar faoliyatini maqsadga yo'naltirishda, tizimlashtirishda, tashkillashtirishda muhim o'rinn tutadi. Shuningdek, u bolalarda harakatlarni muvofiqlashtirish, chaqqonlik, egiluvchanlik, chidamlilik, kuch, tezlik kabi jismoniy xususiyatlarni, shuningdek iroda va tirishqoqlikni rivojlanishga yordam beradi. Bolalarda diqqat-e'tiborning turli xususiyatlarini (davomiylik, barqarorlik, taqsimlash, diqqat-e'tiborni bir narsadan boshqasiga ko'chirish) rivojlaniradi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida bolalarning diqqat-e'tiborini rivojlanishga qaratilgan mashqlarni shakllantirish pedagogik zarurat hisoblanadi.

L. M. Zaxarova va V. S. Zaxarovaning tadqiqotlariga ko'ra, bola kognitiv faoliyatining samaradorligi, ixtiyoriy harakatlarining rivojlanishi va umuman o'zini tutishi ko'p hollarda bola konsentratsiya qobiliyatini boshqarishi bilan belgilanadi. Maktabgacha yoshdagagi bolalarning kognitiv rivojlanishiga jismoniy faoliyatning ta'sirini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, bolalarda konsentratsiya qobiliyatini rivojlanishning eng samarali usulardan biri bu jismoniy tarbiya amaliyotiga harakatlari o'yinlarni joriy etishdir. Mualliflarning fikriga ko'ra, aynan harakatli o'yinlar bolalarning intellektual va kognitiv rivojlanish dinamikasini ta'minlaydi.

Harakatli o'yinlar maktabgacha yoshdagagi bolalarda konsentratsiya qobiliyatini rivojlaniradi. Bu esa bola tomonidan harakatli o'yin qoidalariga amal qilish, harakatlarni ko'rsatmalarga muvofiq amalga oshirish, maqsadga erishishda qat'iyatni namoyon qilishi orqali yuzaga keladi. O. A. Grigoryevning fikricha, ma'lum turdagagi mashg'ulotlar bolalarda konsentratsiya qobiliyatining muayyan xususiyatlarini rivojlanishga yordam beradi. To'pni ushslash va uloqtirish mashqlari obyektga ma'lum bir yo'nalish, traektoriya va uloqtirish tezligini belgilash zarurligini anglatadi. Bu turdagagi mashg'ulotlar bolaning nafaqat jismoniy ko'nikma va qobiliyatlarini, balki diqqat-e'tiborini jamlashni ham rivojlaniradi.

O. N. Gumenyuk bolalarda psixofiziologik jarayonlarni rivojlanishda yoga amaliyoti elementlaridan foydalananishni tavsiya etgan va bu bo'yicha ko'plab tajribalar o'tkazgan. Tajribalarda bolaning chuqur, shuningdek turli xil nafas olish mashqlarini bajarishi ularda diqqatni jamlash va boshqa yuqori aqliy funktsiyalarni rivojlanishini ko'rsatgan. Muallif bolalarda konsentratsiya qobiliyatini samarali rivojlanish metodikasi sifatida "Havo pufagi" nafas olish mashqi qo'llanilgan meditatsiya amaliyotini taqdim etadi. Bu mashq chuqur diafragmal nafasni to'g'ri olishga qaratilgan bo'lib, sekin va maksimal nafas olish (huddi katta sharni puflamoqchi bo'lgandek) hamda

burun orqali sekin nafas chiqarishdan iborat. Mashqni bajarishda bolaga har bir nafas chiqarishda tanasini hotirjam holatda tutishni eslatish lozim. Bunday mashqlar bolalarga o'z nafas olish jarayonini ongli ravishda kuzatish, tanani ixtiyoriy ravishda hotirjam qilish ko'nikmasini rivojlantirishga imkon beradi va o'z navbatida bolaning diqqatini jamlash, barqarorlikni va bir faoliyatdan boshqasiga ko'chira olish ko'nikmasini rivojlantiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha yoshdagagi bolalarda konsentratsiyani rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, hozirgi vaqtida bolalar diqqat-e'tiborini rivojlantirish uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida yoga amaliyotidan olingan turish (posturalar), nafas olish texnikalari va mashqlari kabi asosiy elementlarga asoslangan mashqlar keng joriy etilmoqda va ularning samaradorligi ta'minlanmoqda. Bolalarning yoga amaliyotidan olingan turli mashqlarni bajarishi nafaqat ularning diqqat-e'tiborining ixtiyoriyligini rivojlantirishga, balki diqqatning asosiy xususiyatlarini (barqarorlik, bir narsadan diqqatni boshqa narsaga ko'chira olish, davomiylik, taqsimot) ham takomillashtirishga xizmat qiladi.

Yosh va rivojlanish xususiyatlariga ko'ra, maktabgacha yoshdagagi bolalar uzoq vaqt davomida bir harakatga yoki jismoniy mashqlarga ixtiyoriy ravishda konsentratsiya qilish faolligini ta'minlay olmaydilar. Shuning uchun tarbiyachilar mashg'ulotlarni tashkillashtirish va o'tkazishda bolalarning qiziqishlari, ehtiyojlarini hisobga olishlari, mashg'ulotlarni monotonlikdan xoli tarzda tashkil etishlari, ularning turli variantlaridan foydalananishlari, bolalarning hissiy-aqliy rivojlanishini hisobga olishlari lozim bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalar uchun mo'ljallangan sog'lomlashtirish gimnastika mashqlari va ochiq havoda tashkil etiladigan harakatli o'yinlar ham ularda konsentratsiya qobiliyatini rivojlantirishga ijobji ta'sir ko'rsatadi. O'yin faoliyati bolani harakatli mashqlarni bajarishga emotsiyonal jihatdan jalb qilib, qiziqishni oshiradi, konsentratsiyani rivojlantiradi va diqqat-e'tiborning barqarorligini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida bolalar kognitiv faoliyatining rivojlanish dinamikasini kuchaytiradi. Ochiq havoda o'ynash qoidalariga rioya qilish va maqsadga erishishda qat'iyatlilik bola shaxsining irodaviy sohasini rivojlantirishga ijobji ta'sir ko'rsatadi. Biror faoliyatni o'rganishni to'g'ri tashkil etish maktabgacha ta'limga muassasalarida shakllanib, o'smirlik yoshida mustahkamlanadigan diqqatlilikka odatlanishga zamin hozirlaydi. O'smirda har xil narsalarni bilishga qiziqish, ko'p narsalarni mustaqil bajarishga nisbatan jo'shqin g'ayrat va istak uyg'onadi. Bu, bir tomonidan, diqqatning to'planishi va barqarorligining oshishiga imkon beradi.

Tarbiyachining pedagogik mahorati va kuchli nazorati ta'limga oluvchilarning diqqatini to'g'ri tarbiyalashni ta'minlaydi. Mashg'ulotlarni ko'rgazmali va aniq materialga tayangan holda tashkil qilish orqali ta'limga oluvchilarning diqqatini jalb etish va uni tutib turishga harakat qilish zarur. Bunda ta'limga mazmundorligi va mantiqiyligi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Natijada, ta'limga oluvchilar murakkab materiallarni qunt bilan o'rganish qobiliyatiga ega bo'ladi. Konsentratsiya qobiliyati – bolalar tomonidan axborot va ma'lumotlarni qabul qilishda diqqatning muhim jihatlaridan biridir. A.A. Lyublinskayaning ta'kidlashicha, diqqat aqliy faoliyatning alohida shakli emas, balki u har qanday aqliy jarayonga kiradi va kattalar tomonidan to'g'ri tashkil etilgan bolalar faoliyatining turli shakllarida takomillashtiriladi.

Bolalar orasida qurishga, ashula aytishga, rasm chizishga, musiqaga havas juda erta uyg'onadi. Biroq bu holat hali bolalarning kelajakda qanday mutaxassis bo'lishini aniqlash huquqini bermaydi. Ammo tarbiyachilar va ota-onalar bolalarning qiziqishlariga diqqat bilan qarashlari zarur. Ular bolani diqqat bilan kuzatib, unda musiqa, rasm, qurish-yasash va boshqa yo'nalishlardagi iste'dodning ilk kurtaklarini ko'rishlari kerak. Boladagi qobiliyatlarning shakllanishi kattalarning mana shu kurtaklarni avaylab o'stirishlari va ularga to'g'ri rahbarlik qilishlariga bog'liq. Kundalik hayotda bolalar turli shovqin, signal hamda tovushlarga duch kelishadi. Bugungi axborotlashgan jamiyatda mediaiste'molning yuqoriligi, hattoki bolalar orasida ham kuzatilmoqda. Bu holat ularda axborotlarni qayta ishlash, emotsiyonal bosimning ortishi va stress darajasining kuchayishiga olib kelmoqda. Natijada, bolalarda konsentratsiya qobiliyatining susayishi yuz beradi. Bu esa maktabgacha yoshdagagi bolalarning maktabga tayyorgarlik jarayonining cho'zilishi va samarasiz bo'lishiga sabab bo'ladi. Uyda televizor va turli gadjetlardan ko'p foydalananidagi bolalarning maktabgacha ta'limga tashkilotlaridagi mashg'ulotlarda faol ishtirok eta olmasligi pedagogik kuzatishlar orqali isbotlangan.

Bolalarda turli sabablar ta'sirida o'rganishga to'sqinlik qiluvchi holatlar yuzaga keladi. Pedagogikada bu "o'rganish to'siqlari" (Learning blocks) deb yuritiladi va ularning sabablari quyidagi jadvalda keltirilgan:

1-jadval: Bolalarda o'rganish to'siqlari va uning sabablari tavsifi

O'rganish to'siqlari	Sabablari
Nutq rivojlanishidagi muammolar	Eshitish bilan bog'liq muammolar, yosh va rivojlanishiga mutanosib ravishda so'z boyligining shakllanmaganligi, nutq rivojlanishidagi kechikishlar
Diqqat bilan bog'liq muammolar	O'rganishga majburlash, bosim qilish, chalg'ish, qiziqishning mavjud emasligi
Ijtimoiy qo'rquv	Uyatchanlik, ishonchsizlik, yomon ijtimoiy tajribalar

Motorik faoliyat bilan bog'liq muammolar	Rivojlanishning kechikishi, mayda va yirik motorik ko'nikmalarning yetishmasligi
Emotsional holat	Oilaviy nizolar, ota-onalarning birga yashamasligi, yaqinlarini yo'qotish
O'rganish muhiti	Bolalarga mos kelmaydigan materiallar, tartibsiz hamda shovqinli o'rganish muhiti
Qiziqishning kamligi	Ma'lum bir mavzuga qiziqishning mavjud emasligi, muhimligini anglamaslik
Diqqatchilik	Oiladagi, atrof-muhitdagi diqqatchilik, o'rganishga majburlash orqali bosim
E'tiborning yetishmasligi	Diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi (inglizcha: attention deficit hyperactivity disorder (ADHD)) yoki shunga o'xshash kasalliklar
Sog'liq bilan bog'liq muammolar	Kasalliklar, uyquning yetishmasligi

XULOSA

O'rganish to'siqlari bolalar o'rganishining samarasiz va muvaffaqiyatsiz bo'lishiga olib keladi. Ular diqqatning faoliy oralig'ini kamaytiradi. Buning natijasida bolada rad etish va qo'rquv holatlari ortib boradi. Bolalardagi konsentratsiya qobiliyatini rivojlantirishda o'rganish to'siqlarini maqsadli va muntazam bajariladigan konsentratsiya mashqlari yordamida oldini olish mumkin. Mashqlar bolalar uchun qiziqarli bo'lishi, shuningdek, ularning diqqatni jamlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

M. Sodiqova tevarak-atrofdagi go'zallik har qanday bolani ruhan tetiklashtirishini ta'kidlab o'tadi. Sayr davomida tarbiyachi bolalarning diqqat-e'tiborini tabiatning xilma-xilligiga qaratadi, ularda unga nisbatan muhabbat va ehtiyyotkorlikni shakllantiradi hamda tabiatni asrab-avaylashga o'rgatadi. Sayr bolalarning estetik tuyg'ularini rivojlantiradi, ularda diqqat va e'tiborlilikni tarbiyalaydi. Bolalar kattalarning mehnatini ko'rib, go'zallik inson mehnati evaziga vujudga kelishiga ishonch hosil qiladilar. Umuman olganda, konsentratsiya bola faoliyatining biror obyekt yoki hodisaga jalb qilinishi bo'lib, u ongli faoliyat samaradorligining zarur sharti hisoblanadi. Konsentratsiya ba'zan tashqi sabab ta'sirida, bola xohishidan qat'i nazar, hosil bo'ladi va bu iroda kuchini talab qilmaydi. Maktabgacha yoshdagи bolalar faoliyatining murakkablashib borishi hamda umumi kognitiv rivojlanishining o'sishi hisobiga ularning konsentratsiyasi ko'proq jamlanadi va barqarorlikka ega bo'ladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Вахобова Ф.Н., Расурова М.Ш. и др. Справочник руководителя дошкольного образовательного учреждения. – Т.: 2006. – С. 46–49.
- Григорьев О.А., Карлова Н.А., Черных Ю.Г. Физическое воспитание в дошкольных учреждениях. – Воронеж: Изд-во ВГПУ, 2006. – 91 с.
- Гуменюк О.Н. Использование элементов практик йоги в развитии психофизических процессов у детей с ОВЗ. – Ижевск, 2018.
- Желнина С.Н. Использование элементов хатха-йоги в физкультурно-оздоровительной работе с детьми 5–7 лет // Scientific Cooperation Center "Interactive plus". – Кемерово, 2017.
- Зинченко П.И. Проблема непроизвольного запоминания // Науч. зап. Харьк. гос. пед. ин-та ин. яз. – 1939. – Т. 1. – С. 145–187.
- Захарова Л.М., Захарова В.С. Влияние физической активности на познавательное развитие детей старшего дошкольного возраста // Педагогико-психологические проблемы физической культуры. – 2017. – №12. – С. 136–143.
- Ивко И.А., Чусовитина О.М., Швецова Е.И. Развитие физических качеств у детей 5–6 лет посредством комплекса упражнений с элементами хатха-йоги // Вестник Кемеровского гос. ун-та. – 2015. – №4. – С. 40–45.
- Люблинская А.А. Детская психология: Учебное пособие. – М.: Просвещение, 1991. – 267 с.
- Примерная основная образовательная программа дошкольного образования "Детский сад по системе Монтессори" / Под ред. Е.А. Хилтунен. – М.: Национальное образование, 2014. – 186 с.
- Nizomova K. Olti yoshli bolalarni maktabga tayyorlash va maktabga moslashuvini o'rganish. Metodik qo'llanma. – Т.: 2006. – В. 63–67.
- Pardayeva M.B. Diqqat barqarorligi va diqqat buzilishlari hamda uning belgilari // Pedagogika va psixologiya zam'onaviy dunyoda: nazariy va amaliy tadqiqotlar, 1(10), 2022. – В. 95–97.
- <https://elib.buxdu.uz/index.php/referatlar-mustaqlish-kurs-ishi/item/14554-diqqat-va-uning-xususiyatlari>

- 13.00.00** Pedagogika fanlari
- 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
- 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03** Maxsus pedagogika
- 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07** Ta'limda menejment
- 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00** Tarix fanlari
- 19.00.00** Psixologiya fanlari
- 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00** Kimyo fanlari
- 03.00.00** Biologiya fanlari
- 09.00.00** Falsafa fanlari
- 10.00.00** Filologiya fanlari
- 11.00.00** Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.